

TALABALARDA IJTIMOIY DAXLDORLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

*Odinayeva Gulshoda Shavkatovna,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi assistenti*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' SENSE OF SOCIAL BELONGING

*Odinaeva Gulshoda Shavkatovna, Assistant Lecturer, Department
of Social and Humanitarian Sciences Termez State University of
Engineering and Agrotechnology*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА СОЦИАЛЬНОЙ ПРИЧАСТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

*Одинаева Гулишода Шавкатовна,
ассистент кафедры «Социально-гуманитарные науки»
Термезского государственного инженерно-
агротехнологического университета*



<https://orcid.org/0009-0007-6328-7677>

e-mail
odinaevagulshoda1984@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy daxldorlik hissining shakllanishi, uning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ijtimoiy daxldorlik tushunchasining mazmuni, pedagogik jarayonda uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy faollik, fuqarolik pozitsiyasi va jamiyatga daxldorlik hissini kuchaytirishga qaratilgan samarali metodlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy daxldorlik, talaba, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faollik, shakllanish, ilmiy-nazariy asoslar.

Abstract: This article explores the scientific and theoretical foundations for developing students' sense of social belonging. It examines the concept of social belonging, identifies key factors influencing its formation in the educational process, and highlights modern pedagogical approaches. Special attention is given to effective methods aimed at enhancing students' civic engagement and social responsibility.

Keywords: social belonging, student, civic position, social activity, formation, scientific-theoretical foundations.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические основы формирования чувства социальной причастности у студентов. Раскрывается содержание понятия социальной причастности, анализируются факторы, влияющие на её развитие в образовательном процессе, а также современные педагогические подходы. Особое внимание уделено методам, способствующим повышению гражданской активности и социальной ответственности студентов.

Ключевые слова: социальная причастность, студент, гражданская позиция, социальная активность, формирование, научно-теоретические основы.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda yosh avlod, xususan, talabalarning jamiyat hayotidagi o'rni tobora ortib

bormoqda. Talabalarning ijtimoiy jarayonlarga daxldorligi, ularning faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va mas'uliyat hissi jamiyatning barqarorligi hamda taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Shu bois, ijtimoiy daxldorlik hissining shakllanishi nafaqat psixologik, balki pedagogik va ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida ham chuqur o‘rganilishi zarur.

Ijtimoiy daxldorlik — bu shaxsnинг о‘зини muayyan ijtimoiy guruh yoki jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi, uning qadriyatlar, maqsad va manfaatlariga hamdardlik bilan yondashishidir. Aynan talabalik davri – shaxsiy va ijtimoiy o‘zlikni anglash, dunyoqarashning shakllanishi nuqtai nazaridan eng muhim bosqichlardan biridir. Mazkur bosqichda ta’lim muassasalari, pedagoglar va jamiyatning boshqa institutlari tomonidan to‘g‘ri yondashuv va metodlar qo‘llansa, talabalarda ijtimoiy daxldorlik hissini samarali shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ \ LITERATURE ANALYSIS). Zamonaviy dunyoda talabalar murakkab va qaramaqarshi ijtimoiy-madaniy muhitda shakllanmoqda. Tarbiya va ijtimoiylashtirish jarayonlarining izdan chiqqanligi, ularning tizimliligi va barqarorligi yo‘qolganligi sababli, talabalarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy daxldorlik hissining shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlar yetarli emas. Talabalar muammolarini tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotchilar V.I.Chuprov va Y.A.Zubok ta’kidlaganidek: “...yoshlar (shu jumladan talabalar) xavf va noaniqlik sharoitida rivojlanmoqda” [2].

Mazkur noaniqlik va ijtimoiy beqarorlik sharoitlari talabalarning ijtimoiy faol yo‘nalganligi, jamiyatga daxldorlik hissi va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shuningdek, V.I. Chuprov va Y.A. Zubok ta’kidlaganidek, an‘anaviy ijtimoiy tartibga solish mexanizmlarining kuchsizligi, universal ijtimoiy qadriyatlar va namunaviy yo‘nalishlarning yetishmasligi talabalar muammolarini hal etishda ijtimoiy institatlardan uzoqlashishga, mustaqil ravishda o‘z hayot strategiyalarini ishlab chiqishga majbur etmoqda. Bu esa zamonaviy jamiyatlarda tobora kuchayib borayotgan individuallashtirish jarayonining kuchayishiga olib keladi. Individuallashtirish esa o‘z navbatida, talabalarning ijtimoiy mas’uliyatni his qilish darajasi va ijtimoiy daxldorlik hissining shakllanishiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi [2].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabarni jamiyat hayotiga jalb etish, ularda daxldorlik va

ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishda yoshlari birlashmalari va talabalar tashkilotlari muhim ijtimoiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular talabalarga “teng maqomdagi” subyekt sifatida ko‘rinadi, bu esa ishonchni oshiradi va faol ishtirokka undaydi. Bunday tashkilotlar orqali talabalarda fuqarolik ongini rivojlantirish, o‘zini jamiyatning ajralmas qismi sifatida anglash, tashabbuskorlik va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish imkoniyatlari kuchayadi. Natijada, talabalar ijtimoiy guruhining jamiyatga daxldorligi kuchayadi, bu esa ularning sog‘lom fuqarolik pozitsiyasi, barqaror ijtimoiy rivojlanish va demokratik jarayonlardagi ishtirokini ta’minlaydi [5].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). A.I.Kovalyova va V.A.Lukovning fikricha, yoshlarning ijtimoiy faolligi hamda yoshlari harakatining mohiyati bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular ijtimoiy faoliyat va harakatlarning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlarga tayanadi. Demak, talabalarning ijtimoiy faolligi, xususan ularning yoshlari birlashmalarida ishtirok etishi – ularning ichki ehtiyoji va ijtimoiy manfaatiga aylandi va bu jarayon orqali ijtimoiy daxldorlik hissi shakllanadi va mustahkamlanadi [4].

Talabalarning ijtimoiy faolligi — bu ularning ijtimoiy rivojlanish jarayonidagi ishtirokini ta’minlovchi ijtimoiy birlashmalar va tashkilotlar faoliyatiga jalb etilganligi natijasidir. Bu birlashmalar, o‘z navbatida, talaba-yoshlari rivojlanishi va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti yo‘lidagi yoshlari harakatlari o‘rtasidagi “ijtimoiy vositachi” sifatida maydonga chiqadi.

Talaba-yoshlari birlashmalari va tashkilotlari yoshlarning ijtimoiy rivojlanishida nafaqat oddiy bir ijtimoiy institut sifatida, balki boshqa ijtimoiy institutlarga (masalan, hokimiyat, ta’lim, huquq institutlariga) nisbatan yuqori ishonchga ega subyekt sifatida alohida o‘rin tutadi. Chunki bunday tashkilotlar yoshlari uchun “teng maqomdagi” bo‘lib ko‘rinadi, ularga nisbatan ishonch yuqori bo‘ladi. Ammo bu yondashuvni amaliyotga tatbiq qilish uchun talaba-yoshlari birlashmalari va tashkilotlari yoshlari orasida ishonch, vatanparvarlik hissi hamda jamiyat taraqqiyotida ishtirok etish istagini shakllantirishi zarur. Bunday birlashuvga undovchi asosiy omil esa quyidagicha umumiyy manfaat bo‘lishi lozim: “yoshlari tomonidan jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti orqali o‘z-o‘zini rivojlanish”[3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida talabalarda ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirish va rivojlantirishning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini tushuntiruvchi to‘rt asosiy yondashuv ajratib ko‘rsatildi:

1. “Yoshlar yondashuvi”. Bu yondashuv yoshlarning ijtimoiy faolligi bevosita yoshlar harakati va jamiyat rivojiga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Ya’ni, qanchalik yoshlar faolligi yuqori bo‘lsa, ular shunchalik faol jamoaviy harakatlarga jalg etiladi va buning natijasida jamiyat ham rivojlanadi. Ushbu yondashuv tarafdoqlari: A.Freyd, S.P.Ivanenkov, A.L.Arefyev, A.J.Kusjanova, A.V.Kostrikin, L.F. Shalamova va boshqalar hisoblanadi.

2. “Tashkiliy yondashuv”. Bu yondashuv esa yoshlar birlashmalarini yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko‘radi. Ushbu yondashuvning asosiy vakillari Y.Haberma, A.Giddens, A.Tyuren, A.I.Kravchenko kabilardir.

3. “Yoshlar-tashkiliy yondashuv”. Bu yondashuvga ko‘ra, talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligi shakllanishi bilan yoshlar birlashmalarining tashkil topishi jarayoni o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sirchandir. Ya’ni, bir tomonidan yoshlar harakatlari yoshlar faolligini rivojlantirsa, ikkinchi tomonidan, yoshlar faolligining yuqoriligi yangi birlashmalarning vujudga kelishiga olib keladi.

4. “Instituttsional yondashuv”. Bu yondashuv talaba-yoshlar faolligi va yoshlar tashkilotlarining rivojlanishini davlat va uning ijtimoiy institutlari faoliyatining natijasi deb tushuntiradi. Ya’ni, davlat yoshlar faolligini rag‘batlantiradi, yo‘nalish beradi va buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ushbu yondashuvning asosiy vakillari P.A.Sorokin, I.M.Ilyinskiy, V.A.Lukov, A.I.Kovalyova kabilardir [1].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Talabalarda ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirish zamonaviy jamiyatda muhim pedagogik va ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Bu hissiyot nafaqat shaxsning ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabatini, balki uning faollik darajasini, mas’uliyat hissini, fuqarolik pozitsiyasini ham belgilaydi. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida yosh avlod vakillarini,

xususan talaba-yoshlarni milliy taraqqiyot jarayoniga jalg etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy-nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy daxldorlik – bu shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy guruhga, jamiyatga mansub deb his qilishi, uning muammolari va yutuqlarini o‘z shaxsiy mas’uliyati sifatida qabul qilishi demakdir. P.A.Sorokin, V.I.Chuprov, Y.A.Zubok, V.A.Lukov kabi olimlar yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki va o‘zaro ta’siri masalalariga alohida e’tibor qaratib, bu boradagi institutlar – xususan, yoshlar tashkilotlari, ta’lim muassasalarining o‘rnini chuqur tahlil qilganlar. Xususan, talabalar orasida ijtimoiy daxldorlikni shakllantirishda ijtimoiy faollikni rag‘batlantiruvchi omillar – o‘zini jamiyatga zarur deb his qilish, ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynashga intilish, biror ijtimoiy guruhga mansublik hissi kabi psixologik va ijtimoiy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, talabalarning ijtimoiy institutlarga, xususan yoshlar tashkilotlariga ishonchini oshirish, ularda vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy motivatsiyani kuchaytirish zarur. Chunki talaba-yoshlar ijtimoiy hayotda bevosita ishtirok etganida, ular o‘zlarining jamiyatdagi o‘rnini aniqroq tushunadilar, shuningdek, bu jarayon orqali ularning shaxsiy va fuqarolik yetukligi shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Арефьев А. Исследование молодежного движения в афро-азиатских странах: Теоретико-методологические аспекты. – Москва, 1983.
2. Журавлева В. В. Ювенология в XXI веке: комплексное междисциплинарное знание о молодом поколении. – СПб. : ООО ИД «Петрополис», 2007.
3. Зубок Ю. А. Социальная регуляция в условиях неопределенности. Теоретические и прикладные проблемы в исследовании молодежи – Москва: Academia, 2008.
4. Ковалева А. Социология молодежи: Теоретические вопросы. – Москва: Социум, 1999.
5. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – Москва: Политиздат, 1992.